



ISLOM FIQHIGA KO'RA, NIKOH BITIMINING RUKN VA SHARTLARI

Sadriddinova Halima

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
e-mail:halimasadriddinov@icolud.com
+998993214889

Qambarov A'zamxon Maxamadali o'g'li

Ilmiy rahbar:

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrasida katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14987938>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 06- Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 07- Mart 2025 yil

KEY WORDS

nikoh ,islom fiqhi ,rukn va shartlar ,hanafiy mazhabi ,valiylik ,ijjob va qabul ,guvohlik ,mahr , farz, vojib, sunnat, makruh, harom , oilaviy mustahkamlik.

ABSTRACT

Ushbu maqola Islom fiqhi nuqtai nazaridan nikohning rukn va shartlarini o'rganadi. Nikoh insoniyat uchun eng muqaddas aloqa hisoblanib, oilaviy mustahkamlik, millat barqarorligi va ma'naviy kamolotning asosiy omillaridan biri sifatida ta'riflanadi. Maqolada nikohning lug'aviy va shariatdagi ma'nolari, uning ahamiyati, ruknlari va shartlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, nikohning farz, vojib, sunnat, makruh va harom kabi turli hukmlari ham muhokama qilinadi. Hanafiy mazhabida nikohning ruknlari, valiylik masalalari va boshqa mazhablardagi farqlar ham ko'rib chiqilgan. Maqola nikohning jamiyatdagi ahamiyati va uning inson hayotidagi o'rni haqida chuqur tushuncha beradi.

Nikoh insoniyat orasidagi eng muqaddas robita hisoblanib, millat barqarorligi, oilaviy mustahkamlik va ma'naviy kamolotning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ushbu rishta nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug'chilik, mehr-oqibatni mukammal bo'lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi. Tarixda oilaviy hayot, er-xotinlik munosabatlari uchun turli-tuman mezonlar iqlab chiqilgan. Islom dini o'rtaga qo'ygan mezonlar esa bevosita Alloh ta'oloning kitobi va Payg'ambar alayhissalomning sunnatlariga asoslanadi. Alloh subhanahu va ta'olo o'zi iroda qilgan paytda tuproqdan odam zotini yaratdi va unga o'z huzuridagi ruhdan jon puflab, uni O'zining yerdagi o'rinbosari qildi. So'ngra odamning juftini yaratdi va ularning ikkisidan erkak va ayollarni tarqatdi.¹

Alloh ta'olo Qu'ron karimda shunday marhamat qiladi:

وَاللّٰهُ خَلَقَكُمْ مِّنْ تُرَابٍ ثُمَّ جَعَلَكُمْ اَزْوَاجًا

“Alloh ta'olo sizlarni tuproqdan, so'ngra nutfadan yaratib, keyin juft-juft qilib qo'ydi” (Fotir surasi 11-oyat)²

Alloh ta'olo inson zotini juft qilib, erkak va ayoldan iborat qilib yaratganda ularning har biriga o'ziga xos xususiyatlarni berdi va ularning nikoh orqali halol-pok yashab, o'zlaridan zurriyotlar qoldirishlarini hamda ayni shu yo'l bilan dunyoning obod bo'lishini va odam sulolasini qiyomat qoim bo'lguncha halol-pok yo'l bilan davom etib borishini iroda qildi.

Nikoh sharfli va muborak aqd. Alloh ta'olo uni bandalarining foyda va manfaatlari uchun, ezgu maqsadlarga va sharfli g'oyalarga erishishlari uchun joriy qilgan bo'lib, undan umimiy maqsad, zurriyot qoldirish hamda haromdan saqlanish hisoblanadi.

"Nikoh" so'zi lug'atda "qo'shish", "jamlash", "yaqinlik" degan ma'nolarni anglatadi. Shariatda esa nikoh, bir bog'lanish bo'lib, u tufayli huzurlanishni qasd etish, ya'ni erkak kishining nikohida shar'an monelik bo'lmagan ayol kishidan huzur olishini halol qilishdir. Bu ta'rif ba'zi Hanafiy ulamolar tomonidan aytilgandir. Bundan boshqa ta'riflar ham ko'p bo'lib, ularning hammmasi bir-birini to'ldirib keladi. Ta'rifdagi "ayol" so'zidan ayol kishidan boshqa bilan nikoh, bog'lash mumkin emasligi, yani nikoh bo'g'lanishi faqat bir erkak va bir ayol orasida bo'lishi mumkinligi kelib chiqadi. "Nikohida shar'an monelik bo'lmagan" degan jumladan shariat nikohini harom qilgan ayolni nikohlab bo'lmasligi kelib chiqadi. Butparast ayol, mahram, ya'ni yaqin qarindosh ayollar shu jumlagi kiradilar.³

Kan'on Muhammad Ahmadning "Er-xotinlik" asoslari kitoblarida esa nikohga quyidagicha ta'rif beriladi: "«Nikoh» so'zi «qo'shish», «kirishish», «bog'lanish» ma'nolarini bildirgani uchun, er bilan xotin o'rtasini bog'lovchi bitimga nom qilib qo'yilgan. Shariy ma'nosi esa quyidagicha: «Birga turmush qurishlari uchun shariy to'siq bo'lmagan ayol bilan erkakning bir-birlaridan lazzat olishlarini halol yo'lga soluvchi bitim nikohdir». Nikoh aqdi bitimlarning eng yaxshisidir. Zero, u inson zotiga aloqador bo'lib, ikki shaxs o'rtasini mehr-muhabbat to'rlari bilan bog'laydi. U pok va sog'lom zurriyot qoldirishga birinchi qadamdir, jinsiy a'zolarni buzuqliklardan saqlash yo'lidir. Hamda yosh avlodga tarbiya berish kabi ezgu niyat bilan oila qurish vositasidir, nomahram ayoldan jismonan lazzatlanish huquqini beruvchi bitim demakdir. Nikohdagi kishi o'z shaxvatini halol yo'l bilan qondirganligi uchun, ko'zi nomahramlarga qarashdan tiyilgan va farji esa haromdan saqlangan bo'ladi.

النكاح هو عند الفقهاء (عقد يفيد ملك المتعة) أي حل الاستمتاع الرجل – من امرأة لم يمنع من نكاحها مانع شرعي.

"Fuqaholar nazdida nikoh-jismonan bahralanish huquqini ifoda qiladigan, ya'ni kishi nikohlanishi shar'an joiz bo'lgan ayoldan rohat olishi halolligini ifoda qiladigan bitimdir."⁴

Alloh ta'olo Qur'on karimda marhamat qiladi:

وَأَنْكِحُوا الْأَيَامَىٰ مِنْكُمْ وَالصَّالِحِينَ مِنْ عِبَادِكُمْ وَإِمَائِكُمْ إِنْ يَكُونُوا فُقَرَاءَ يُغْنِهِمُ اللَّهُ مِنْ فَضْلِهِ وَاللَّهُ وَاسِعٌ عَلِيمٌ

Sizlarning orangizdagi tul (erkak va ayol) larni hamda qul va cho'rilaringizdan yaroqlilarini uylantiringiz! Agar (ular) kambag'al bo'lsalar, Alloh ularni O'z fazli bilan boyutur. Alloh (fazlu karami) keng va dono Zotdir.⁵

1873. Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning "Ey yoshlar jamoasi! Sizda kim nikohga qodir bo'lsa,⁶ uylansin. Albatta u ko'zni to'suvchi va farjni saqlovchidir. Kim qodir bo'lmasa, ro'zani lozim tutsin, bu uning uchun bichilishdir",⁷

Ushbu hadisi sharif mo'min-musulmonlarni yoshlik chog'larida nikohga qodir bo'lishlari bilanoq oila qurishga chorlanmoda

Nikoh holatga qarab besh xil vasfga ega bo'ladi;

1. Farz.

Agar inson oila qurmasa zinoga yo'liqishiga shak-shubha qolmaydigan darajada aniq ishonsa, oila qurish va uni tutish sarf-hamrajatini ko'tara olsa, oilalikning shar'iy haq-huquqlarini ado etishga qodir bo'lsa va zinodan saqlanishning boshqa yo'lini topa olmasa uning uchun nikohlanish farz bo'ladi.

2. Vojib.

Agar inson zinoga yo'liqishdan jam bo'lmagan tarzda qo'rqsa, oila sarf-harajatlariga qodir bo'lsa va jufti haloliga zulm qilishdan va uning haqqini poymol qilishdan qo'rqmasa uning uchun nikohlanish vojib bo'ladi.

3. Harom.

Agar inson jufti haloliga zulm qilishga va unga zarar etkazishga, oilaning sarfu hamrajatini ko'tara olmasligiga va adolat qila olmasligiga ochiq-oydin ko'zi etib turgan bo'lsa uning uchun nikohlanish harom bo'ladi.

Agar bir kishida nikohning farz va harom bo'lishi qarama-qarshi bo'lib qolsa, harom g'olib keladi. Chunki shariat qoidasi bo'yiga halol bilan harom jamlanib qolsa harom g'olib keladi.

4. Makruh.

Agar inson uylanganda nafaqadan ojiz bo'lishi, muomalani yomon qilishi va sherigiga rag'bat bo'lmasligi kabi olmillarga ko'ra o'zidan javr va zarar sodir bo'lishidan jam bo'lmagan holda qo'rqsa, uning uchun nikohlanish makruh bo'ladi.

5. Sunnat.

Agar inson mo'tadil holatda bo'lsa, zinodan va sherigiga zulm qilishdan qo'rqmasa uning uchun nikohlanish sunnat bo'ladi.⁸

Nikohni rukni masalasida hamma mazhablar bir ovozdan iyyob va qabulni birinchi o'ringa qo'yg'alar.

"Iyyob" - aqdi nikohda ishtirok etadigan ikki tomonning biridan shu masalada rag'bat sodir bo'lganini anglatadigan narsa, "qabul" esa ikkinchi tomondan ana shu rag'batni qabul qilganini bildirish uchun sodir bo'lgan narsadir. Bizning voqeligimizda nikoh o'qiyotgan domla kelindan "Falonchiga turmushga chiqishga rozimisiz?" deb so'raganda kelinning "Ha" yoki "Roziman" deyishi, iyyob bo'ladi. Domla kuyovdan "Falonchini jufti halollikka qabul qildingizmi?" deb so'raganda kuyovning "Qabul qildim" deyishi "qabul" bo'ladi. Shuningdek, bir erkak ayol kishiga: "Menga xotin bo'lishga rozimisan?" desa, bu "iyyob" bo'ladi. Ayol unga "Roziman", deb javob bersa, bu "qabul" bo'ladi. Yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Bazi vaqtlarda valiyalar yoki vakillar orqali ham "iyyob-qabul" bo'lishi mumkin. Hanafiy mazhabida faqat iyyob va qabulganina nikohning rukni hisoblanadi. Iyyob va qabul, yani rozi-rizolikni alohida va jamoatchilik oldida so'rashni joriy qilishda yoshlarga o'z e'klari bilan oila qurayotganliklarini yana bir bor namoyon qilish manosi ham bordir. Agar ichkarida odamlarning xabarisiz to'y qistov bilan bo'layotgan bo'lsa, yana bir imkon yaratib, ochig'ini e'lon qilish uchun yigit va qizga fursat beriladi.⁹

Hanafiy mazhabida faqat iyyob va qabulgina nikohning rukni hisoblanadi. Qolgan mazhablarda esa iyyob va qabul bilan birga quyidagilar ham qo'shiladi.

1. Xotin.

2. Er.

3. Valiy

Shu bilan Hanafiy mazhabidan boshqa mazhablarda nikohning rukni to'rtta bo'ladi. Nikohning turi bo'lishi uchun bir nechta shart yuzaga chiqishi kerak:

1. Nikoh, mahali asliy va fariy ravishda mavjud bo'lishi lozim.

Boshqacha qilib aytanda, nikohda ishtirok etishi ko'zlangan ayol erkakka abadiy ravishda ham, vaqtinchalik ham hamroh bo'lmasligi kerak. Mahramlarga va ba'zi ayollarga vaqtinchalik uylanib bo'masligi haqida oldin batafsil gaplashilgan.

2. Iyyob va qabulda ishlatilgan iboralar abadiylikni ifoda qilishi shart.

Vaqtinchalikni ifoda qilsa, bo'lmaydi. Vaqtini tayin qilib, "Falon oyga", "Falon yilga nikohlandik", deyilsa, nikoh botil bo'ladi. Shuning uchun ham muvaqqat nikoh va mut'a nikohi harom sanaladi.

3. Guvohlik.

Guvohlik haqida yuqoridagi hadisi sharifning sharhida gapirib o'tildi. Hamma mazhab ulamolari "Guvohliksiz nikoh bo'lmaydi", deb ittifoq qilganlar. Molikiylar hatto "Guvohlardan nikohni sir tutish so'ralsa, nikoh botil bo'ladi", deganlar.

4. Ikki tomonning roziligi.

Er ham, ayol ham o'z ixtiyorlari bilan nikohga harakat qilishlari shart. Bo'lmasa, nikoh hisoblanmaydi. Imom Nasoiy Oisha (r.a)dan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: "Bir qiz u kishining oldiga kelib, "Otam meni o'z ukasining o'g'liga turmushga berdi. Bu bilan sharafsizligini qutarmoqchi. Men buni hush ko'rmayman", dedi. U kishi (Oisha r.a) "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kelgunlaricha o'tirib tur", dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kelganlaridan keyin (u zotta bo'lib ugan gap hamkida) hambar berdim. U zot uning otasiga odam yuborib, chaqirtirib keldilar. So'ngra ixtiyorni qizga berdilar. Shunda u: "Ey Allohning Rasuli! Otam qilgan narsani joiz qildim. Lekin bu ishda otalarga xech narsa yo'qligini ayollarga o'rgatishni iroda qilgan edim", dedi"(o'sha qizning ismi Hansa bintu Xizom al-Ansoriya edi).¹⁰

5. Valiy.

Odatda, ota yoki uning o'rniga qolgan shaxs valiy bo'ladi. Bir kishida valiylik huquqi hosil bo'lishi uchun bu kishi hur, mukallaf hamda musulmon bo'lish lozim. Bu ham merosxo'rlik tartibi asosida quyidagicha bo'ladi:

1. O'g'il, o'g'il nabira, o'g'il evara.
2. Ota, bobo.
3. Aka-uka, aka-ukaning farzandlari.
4. Amaki va uning farzandlari.

"Hanafiy mazhabi ulamolari shunday deyishgan: "Valiylik - majburlash huquqiga egalik bo'lib, kishining yaqin qarindoshlarigagina sobit bo'ladi, chunki Aliy (r.a)dan rivoyat qilinganidek, nikohda quyidagi tartibda: oilalik, otalik, aka-ukalik, amakilik vositasida valiylik sobit bo'ladi" ("Fiqh al-islamiy va adillatuhu") Yaqin valiy bor bo'lsa, undan uzoqroq valiy nikohga valiylik qila olmaydi. Masalan, bir ayol turmushga chiqayotgan bo'lsa, valiylikka otasidan ko'ra o'g'li haqliroq hisoblanadi. Agar mazkur tartibdagi valiylik yuk bo'lsa, valiylik onaga, ona ham bo'lmasa buviga, buvi ham bo'lmasa, ona tarafdan bo'lgan buviga o'tadi.¹¹

Imom Abu Hanifa (r.a)ning nazdida, balog'atga yetgan ayol hoh qiz, hoh juvon bo'lsin, valiysi nikohiga qatnashmasa ham, u ayolning roziligi bilan nikoh bog'lanadi. Ammo Abu Yusuf va Imom Muhammad (r.a) valiysi ruxsat bermaguncha nikoh bog'lanmaydi, deyilar.¹²

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, nikohning ahamiyati shundaki, u faqat ikki inson o'rtasidagi bog'liqlik emas, balki butun jamiyatning ma'naviy va axloqiy asoslarini mustahkamlovchi omildir. Oilaning poydevori mustahkam bo'lsa, jamiyat ham barqaror bo'ladi. Shuningdek, nikoh turli holatlarga qarab farz, vojib, sunnat, makruh va harom hukmlariga ega bo'lib, shariat insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga zarar yetkazmaydigan tarzda tartib belgilagan. Islom fiqhida nikohning asosiy shartlari va ruknlari belgilab qo'yilgan bo'lib, uning haqiqatdan ham halol va barakali bo'lishi uchun iyjob va qabul, guvohlarning ishtiroki, mahrning belgilanishi va valiyning roziligi kabi jihatlar e'tiborga olinadi. Xususan, Hanafiy mazhabida balog'atga yetgan ayol o'z ixtiyori bilan turmush qurishi mumkinligi, boshqa mazhablarda esa valiyning ishtiroki shart ekani aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. — T.:Hilol-Nashr, 2022. – 527 b.

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsir Hilol 5-juz. — T.: "Hilol-Nashr", 2019. – 672b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 13-juz. Nikoh, taloq va idda kitobi. — T.: "Hilol- Nashr", 2023. - 424 b.
4. Abdulmannon Abdulloh. Nikoh kitobi (nikohga oid muhim masalar) — T.: " Hilol -Nashr", 2024 – 400 b.
5. Abdulaziz Mansur. Qur'on karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. — T.: "Toshkent islom universiteti", 2009. – 624 b.
6. Muhammad Oshq Ilohiy Al-Barniy. At-tashil az-zaruriy (Ibodotga taalluqi zaruriy masalalarning osonlashtirilgan bayoni). // Nashrga tayyorlovchi Rashid Zoxid Fozil o'g'li; – T.: "Yashil yaproq nashr-matbaa uyi", 2022. – 427 b.

